



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

PARRANDALAR KOLIBAKTERIOZINI O'RGANILGANLIK DARAJASI

Ernazarov D.A., Yo'ldoshova I.O.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Parrandachilik sohasida kolibakterioz kasalligi eng keng tarqalgan bakterial infeksiyalardan biri bo'lib, u asosan *Escherichia coli* bakteriyasi tomonidan chaqiriladi. Bu kasallik parrandalarda respirator, ichak va umumiy septik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Kolibakterioz tufayli parrandalar orasida o'lim ko'rsatkichlari ortadi, tuxum va go'sht mahsuldorligi kamayadi. Shu bois, bu kasallikni o'rganish, tashxislash va oldini olish veterinariya meditsinasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Kolibakterioz kasalligi nafaqat veterinariya, balki jamoat sog'lig'i uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki *E. coli* bakteriyasi antibiotiklarga chidamli shakllarni hosil qilishi mumkin. So'nggi yillarda parrandachilikning intensiv rivojlanishi, antibiotiklardan keng foydalanish va bioxavfsizlik choralarining yetarli emasligi tufayli kasallik tarqalish darajasi oshmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va OIE ma'lumotlariga ko'ra, *E. coli* infeksiyalari global oziq-ovqat xavfsizligi uchun xavf tug'diradi.

Kolibakterioz kasalligini o'rganilganlik darajasi. Kolibakterioz kasalligi bo'yicha dastlabki ilmiy izlanishlar XX asr boshlarida Yevropa va AQShda boshlangan. Smith va Brooder (1953) parrandalardagi kolibakteriozning etiologiyasi va patogenezini haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlarni bergan. Kabir (2010) o'z tadqiqotlarida kolibakteriozning epizootologiyasi, tashxislash va profilaktika choralarini tahlil qilgan. Apostolakis va Piccirillo (2021) Italiyada olib borgan tadqiqotlarida parrandalardagi APEC shtammlarining molekulyar tuzilishini o'rgangan. Mohamed K. Abdelhamid va hammualiflar (2024) esa koliseptisemiya jarayonlarini genomik tahlil asosida o'rganib, kasallikning tuxum orqali yuqish mexanizmlarini yoritgan. Shuningdek, Kromann va Jensen (2022) *E. coli* infeksiyasining in vivo modellari orqali kasallikni tajriba hayvonlarida o'rganish usullarini ishlab chiqqanlar. Tilli va hammualiflar (2024) bioxavfsizlik choralari kolibakteriozning oldini olishda qanday rol o'ynashini tizimli tahlil qilgan. Markaziy Osiyo va O'zbekiston olimlari orasida R. Raximov, O. Mamatqulov va Sh. Jo'rayev tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda parrandalarda kolibakteriozning klinik belgilari (1-rasm), tashxislash usullari va antibiotiklarga qarshilik masalalari o'rganilgan.



1-Rasm. Kolibakterioz kasalligini klinik belgilari

Xulosa. Kolibakterioz kasalligini o'rganish bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar kasallikning etiologiyasi, patogenezini, epizootologiyasi va profilaktikasini o'rganishga

yo'naltirilgan. Biroq, antibiotiklarga chidamli APEC shtammlarining paydo bo'lishi global muammoga aylanmoqda. Kelajakda molekulyar genetik diagnostika, yangi avlod vaksinalarini ishlab chiqish va bioxavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdelhamid M.K. et al. (2024). Genomic insights into colisepticaemia progression in layer chickens. *Scientific Reports*, 14(8): 8111.
2. Apostolakos I., Piccirillo A. (2021). Molecular characteristics of Avian Pathogenic *Escherichia coli* (APEC). *Frontiers in Veterinary Science*, 8: 737720.
3. Kabir S.M.L. (2010). Avian colibacillosis: A review of epidemiology, pathogenesis, diagnosis, control and public health concerns. *Int. J. Environ. Res. Public Health*, 7(3): 89–103.
4. Kromann S., Jensen H.E. (2022). In vivo models of *E. coli* infection in poultry. *Acta Vet Scand*, 64: 33.
5. Raximov N.Sh., Mamatqulov O., Jo'rayev S. (2022). Parrandalarda kolibakterioz kasalligi va uning oldini olish. *Veterinariya jurnali*, №4.
6. Smith H.W., Brooder L.E. (1953). Colibacillosis in poultry. *Veterinary Record*, 65(3): 293–300.
7. Tilli G. et al. (2024). Role of biosecurity in the prevention of colibacillosis in poultry. *Prev. Vet. Med.*, 231: 105932.
8. Shavkat, A., Radjabbay, J., & Umidbek, K. (2025). EPIZOOTIOLOGY OF FASCIOLIASIS IN CATTLE IN UZBEKISTAN AND KARAKALPAKSTAN: RESULTS OF A 15-YEAR STUDY AND PATHOLOGOANATOMICAL CHARACTERISTICS. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 8(3), 1-6.
9. Shavkat, A., Barlikbayevich, E. A. Q., & Allaniyazovna, P. D. In the Conditions of Karakalpakstan. Sheep Fasciolosis and Fasciola Gigantica Were First Found in the Lungs.–2023.
10. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(4), 98-102.
11. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. *Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar*, 2 (4), 85-88.
12. Dosumbetovich, AS, & Qutlymuratovich, SA, SA Qoraqalpog'istonda qoramollarda yashirin surunkali endometritni davolashning samarali usullari. *Academicia Globe*, 2 (05), 240-244.
13. АВЕЗИМБЕТОВ, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. *Экономика и социум*, (12 (79)), 338-341.
14. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenezi, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. *Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali*, 2 (06), 1-6.
15. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781.
16. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
17. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE

QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARIDA BUG'OZLIK DIAGNOSTIKASI

Qadirberganov B.G'.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'paytirish, naslni yaxshilash va mahsuldorlikni oshirishda bug'ozlikni o'z vaqtida aniqlash muhim veterinariya va zootexnik tadbirlardan biridir. Homiladorlikni erta tashxislash chorvachilik xo'jaliklarida nasldor hayvonlardan samarali foydalanish, bepushtlik holatlarining oldini olish, naslni sog'lom shaklda davom ettirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Homiladorlik jarayonida hayvon organizmida fiziologik va morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlarni tashqi belgilar, palpatsiya, auskultatsiya, vaginal va rektal tekshiruvlar yordamida aniqlash mumkin. So'nggi yillarda laboratoriya usullari — qon, sut va servikovaginal shilimshiq tahlili orqali tashxislash metodlari keng qo'llanilmoqda.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda turli turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari — sigir, toychoq, qo'y, echki, cho'chqa, it va mushuklarda bug'ozlik diagnostikasi usullari o'rganildi. Quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi.

Tashqi tekshiruv. Hayvonning umumiy holati, qorinning shakli, sut bezlarining o'zgarishi, harakatdagi xotirjamlik, estrusning yo'qligi baholandi.

Palpatsiya. sigir va toychoqlarda qorin devori orqali yoki rektal yo'l bilan homila harakati va bachadon o'zgarishlari aniqlanadi.

Auskultatsiya. Homilaning yurak urishlari stetoskop yordamida tinglandi. Yurak urishining chastotasi onanikidan ikki barobar tez bo'lishi bug'ozlik belgisidir.

Vaginal tekshiruv. Bachadon bo'yni holati, shilliq qavat holati va shilimshiqning o'zgarishlari o'rganildi.

Rektal tekshiruv. bachadon shoxi, tuxumdonlar, bachadon arteriyalarining tebranishi palpatsiya qilinib, homila rivojlanish davrlari (3–7 oy) bosqichma-bosqich baholandi.

Laboratoriya tahlillari.

Sut orqali aniqlash. spirt bilan koagulyatsiya testi.

Servikovaginal shilimshiq orqali aniqlash. NaOH va qaynatish asosidagi rang reaksiyasi.

Qon orqali aniqlash. Koul va Xart, Fridman-Shnayder, Zondek-Ashxaym usullari yordamida prolan gormoni aniqlash.

Natijalar va ularning tahlili. 1. Sigirlarda bug'ozlik diagnostikasi

Sigirlarning bug'ozligini tashxislashda eng samarali usul — **rektal palpatsiya** hisoblanadi. Homiladorlikning 1–3 oyida bachadon shoxlarining assimetriyasi, sariq tana mavjudligi va amniotik suyuqlik sezilishi aniqlandi. 4–6 oyda bachadon shoxi qorin bo'shlig'iga siljib, o'rta bachadon arteriyasining tebranishi paydo bo'ladi. 7–9 oyda esa homila qismlari palpatsiya qilinib, yurak urishlari eshitiladi.

Laboratoriya tahlillarida **sut-spirt testi** 70–75% aniqlik ko'rsatgan bo'lsa, **NaOH reaksiyasi** 60–70% aniqlik berdi.

2. Biyalarda bug'ozlik diagnostikasi.

Biyalarda homiladorlik 3–4 oyda aniqlana boshlaydi. Tashqi tekshiruvda qorinning pastki devori bo'rtib chiqadi. Rektal palpatsiyada bachadon shoxining assimetriyasi, sariq tana va o'rta bachadon arteriyasi tebranishi kuzatildi. 8–9 oyda homila qismlari aniq paypaslanadi.

Koul va Xart usuli. (prolan testi) 30–100 kun oralig'ida yuqori aniqlik (85–90%) ko'rsatdi.